



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2
2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

Sevinch Shomurot qizi Arziyeva Gilam ishlab chiqarish korxonalarida iste'molchilar xulq-atvorini o'rganish va marketing qarorlarida qo'llash	147
Xilola Nematovna Ochilova, Mirzohid Azamat o'g'li Iskandarov Boshqaruvda menejment tamoyillarining o'rni, ahamiyati va zaruriyati	151
Nigina Marupovna Usmanova Xizmat ko'rsatish sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o'rni hamda holat tahlili	155
INNOVATSIYA VA RAQAMLI IQTISODIYOT	
Xayrulla Qilichovich Qarshiboyev Iqtisodiy jarayonlarni modellash tirishda chiziqli regressiya modelidan foydalanish	162
Malika Axmad qizi Qurbonova Hududiy boshqaruvda raqamli iqtisodiyot samaradorligini ekonometrik baholash	166
Nargiz Toxirovna Sattarova Mintaqaviy tadbirkorlik subyektlarini raqamli ekotizimga integratsiyalash orqali hududiy raqobatbardoshlikni ta'minlash	169
Gullola Mirkamolovna Toxirova Savdo korxonalarida innovatsion rivojlanish va barqaror iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik	172
Sanjar Safarovich Bazarov Iqlimga moslashuvchan asalarichilikni rivojlantirishda raqamli monitoring tizimlarini baholash	175
MOLIYA, PUL MUOMALASI VA KREDIT	
Shavkat Sobirovich Oltayev Milliy iqtisodiyot taraqqiyotida eksport faoliyatining ahamiyati	180
Nargiza Muzafarovna Babaeva Mikromoliyaviy tashkilotlarning kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi roli	183
BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT	
Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналарда 5-сон МХХС стандарти асосида активлар ҳисобини юритиш	191
Jahongir Bakhodirovich Ergashev Savdo korxonalari iqtisodiy samaradorligini moliyaviy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish	194
Давлат Комилов Уразов Актуальные вопросы трактовки, классификации и оценки качества аудиторских услуг	198
Asror Maxmanazar o'g'li Yusupov Qo'shma korxonalarda aktivlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etishning o'ziga xos jihatlari	205
Alisher Bobaqulovich Ravshanov Chorvachilik xo'jaliklarida qoramollarni hisobga olish muammolari	210
Nilufar Abdaxatovna Abdukadirova Umumiy ovqatlanish korxonalari faoliyati samaradorligini kompleks iqtisodiy tahlil qilish va baholashning zamonaviy yondashuvlari	215
TA'LIM, KADRLAR TAYYORLASH VA PEDAGOGIKA	
Farrux Shadiyorovich Shanazarov Ta'lim va ijtimoiy xizmatlarning inson kapitalini shakllantirishdagi o'rni	218
Зулфия Самиевна Ганиева, Лазиз Абдирашидович Наврузов Социально-когнитивные механизмы формирования математических компетенций: синтез идей Л.С. Выготского и принципов RIE	223
E'TIBORGA MOLIK MASALALAR	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев Жамоада яхши етакчининг борлиги – жамоанинг бахти	227

Asror Maxmanazar o‘g‘li Yusupov – “INTERNATIONAL SCHOOL OF FINANCE TECHNOLOGY AND SCIENCE” institutining
“Buxgalteriya hisobi” kafedrası dotsenti v.b.

QO‘SHMA KORXONALARDA AKTIVLARNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TASHKIL ETISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya. Maqolada qo‘shma korxonalar faoliyatining umumiy tavsifi, moliyaviy hisobot elementlarini buxgalteriya hisobidagi tashkiliy va huquqiy masalalari, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, investitsion mulk, biologik aktivlar, uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar, kechiktirilgan soliq aktivlari, sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar, tovar moddiy zaxiralar, debitorlik qarzlari, pul mablag‘larining buxgalteriya hisobini yuritishning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: qo‘shma korxonalar, MHXS, aktivlar, uzoq muddatli aktivlar, joriy aktivlar, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, investitsion mulk, biologik aktivlar, uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar, kechiktirilgan soliq aktivlari, sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar, tovar moddiy zaxiralar, debitorlik qarzlari, pul mablag‘lari, moliyaviy hisobot.

Kirish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizdagi mulkiy munosabatlarning yangi tamoyillar asosida o‘zgarishi buxgalteriya hisobi qoidalarini takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Yangi tamoyillar hozirgi iqtisodiyotimiz modeliga asoslangan bo‘lishi, iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalangan hamda xalqaro buxgalteriya hisobi andozalariga javob berishi lozim. 13.04.2016-yildagi O‘RQ-404-son Qonun bilan “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” Qonunga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritildi, uning yangi tahriri tasqdilandi. Ushbu qabul qilingan qonunning 10-moddasiga muvofiq “Buxgalteriya hisobi subyektlariga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) qo‘llash jihatlari kiritildi” [1].

Buxgalteriya hisobini xalqaro prinsiplar va standartlarga muvofiq me‘yoriy-huquqiy hujjatlarini yangi normalar asosida tartibga solishni takomillashtirish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risidagi” qarori[2], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi PQ-282-son “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori[3], O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktyabrdagi 181 – son buyrug‘i 1-ilovaga asosan «Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to‘g‘risida»gi Nizom[4]lar qabul qilindi. Bu qarorlar asosan, xalqaro bozorlarga integratsiyalanishuvi va xorijiy investorlarni jalb qilishda moliyaviy hisobotlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tuzish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada analiz va sintez, induksiya va deduksiya, monografik kuzatish, taqqoslash, ikki yoqlama yozuv, omilli tahlil, iqtisodiy matematik va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga ko‘ra, aktivlarni tan olish, baholash va hisobga olish tamoyillari bo‘yicha xorijlik hamda mamlakatimiz iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlarni olib borishgan. Iqtisodchi olimlar o‘z e‘tiborini aylanma kapital, aylanma mablag‘lar va joriy aktivlarning yaxlit tushuncha ekanligiga e‘tibor qaratsa, ayrimlari joriy aktivlarning qiymatini baholash va ularning bir aylanish siklida qatnashishiga, boshqalari esa ushbu kategoriyaning ikkita jihati - moliyaviy va mulkiy ko‘rinishlariga e‘tibor qaratgan.


Joriy aktivlar - bu hisob (moliyaviy) yilida kamida bir marotaba aylanadigan korxonaning joriy aylanishda qatnashadigan mulkining qiymati, pul mablag‘lari va hisoblashishdagi mablag‘laridir. Joriy aktivlar aylanmadagi tovar moddiy boyliklar, hisoblashishdagi mablag‘lar, qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar va pul mablag‘larini o‘z ichiga oladi.

Bu aktivlar o‘z tabiatiga ko‘ra harakatchan bo‘lib, to‘rtta asosiy element: moddiy zaxiralar, debitorlik qarzlari, qisqa muddatli qarzlari va pul mablag‘laridan tashkil topadi. Professor I.N.Ismanovning ta’kidlashicha “Aktivlarni to‘g‘ri tasniflash orqali xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tahlil qilish va ularga baho berish imkoniyati kengayadi” [7]. Iqtisodchi olimlarimizdan S.N.Tashnazarov Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tarkibida “Aktivlar, majburiyatlar va investitsiyalarga doir standartlar-ushbu guruhga 9 ta standart kiritilgan”ligini [8] ko‘rsatib o‘tgan. Xalqaro standartlar qoidasiga ko‘ra, foyda keltirmaydigan aktivlarga qilinadigan

sarf xarajatlar zararga olib boriladi. D.Mavlyanova fikricha, joriy aktivlar deganda ishlab chiqarish va muomala fondlarini shakllantirish uchun pul ko‘rinishida avanslashtiriladigan, doimo bir funksional shakldan boshqa shakl ko‘rinishiga o‘tadigan qiymat tushuniladi [9].

Bizning fikrimizcha, aktivlar deyilganda, mavjud resurs bo‘lib, o‘tgan voqea va hodisalar natijasida vujudga kelgan, nazorat funksiyasiga ega bo‘lgan iqtisodiy resurslardir.

Tahlil va natijalar. Konseptual asosga ko‘ra moliyaviy hisobotning elementlari quyidagicha klassifikatsiya qilingan:



1-rasm. Moliyaviy hisobot elementlari

Foydalanuvchilar tomonidan moliyaviy hisobotga asoslanib to‘g‘ri iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun yuqoridagi moliyaviy hisobot elementlari moliyaviy hisobotlarda subklassifikatsiya qilingan holda taqdim etiladi.

1-jadval.

Moliyaviy hisobot elementlari klassifikatsiyasi

Umumiy klassifikatsiya	Elementlar	Mazmuni
Iqtisodiy resurslar	Aktivlar	O‘tgan hodisalarning natijasida tadbirkorlik subyekti nazorat qiladigan va kelgusida undan tadbirkorlik subyektiga iqtisodiy naf kelib tushishi kutilayotgan resursdir.
		Iqtisodiy resurs - bu iqtisodiy naf yaratish imkoniyatiga ega bo‘lgan huquq.
Da‘volar	Majburiyatlar	O‘tgan hodisalar natijasida kelib chiqadigan va u bo‘yicha hisoblashish iqtisodiy nafni o‘zida mujassamlashtirgan resurslarni tadbirkorlik subyektidan chiqib ketishiga olib kelishi kutilayotgan tadbirkorlik subyekti joriy majburiyatidir.
	Xususiy kapital	Tadbirkorlik subyekti aktivlaridan uning hamma majburiyatlarini ayirib tashlagandan keyin qoladigan qismdir.
Iqtisodiy resurslari va ularga bo‘lgan da‘volardagi o‘zgarishlar	Daromadlar	Bu aktivlarning kelib tushishi yoki ko‘payishi yohud majburiyatlarning kamayishi shaklida iqtisodiy nafning hisobot davridagi o‘sishidir, va ushbu o‘sish kapital egalarining kapitalga qo‘yilmalari bilan bog‘liq bo‘lmagan ko‘payishiga olib keladi
	Xarajatlar	bu aktivlarning chiqib ketishi yoki kamayishi yohud majburiyatlarning paydo bo‘lishi shaklida iqtisodiy nafning hisobot davridagi pasayishidir, va ushbu pasayish kapitalning egalariga taqsimlanadigan summalar bilan bog‘liq bo‘lmagan kamayishiga olib keladi
Iqtisodiy resurslari va ularga bo‘lgan da‘volardagi boshqa	-	Kapital egalarning tashkilot kapitaliga qo‘yilmalari va ularni taqsimlanishi

o'zgarishlar		
	-	Xususiy kapitalni oshirmaydigan yoki kamaytirmaydigan aktivlar yoki majburiyatlar almashinuvi

Xo'jalik operatsiyalari natijasida paydo bo'ladigan moddalarning ushbu elementlardan biriga to'g'ri kelishi yoki kelmasligi operatsiyaning faqat yuridik shakli emas, balki iqtisodiy mazmuniga ham asoslanadi.

Aktivlar yoki majburiyatlar ta'rifiga javob beradigan moddalar to'g'ridan- to'g'ri moliyaviy hisobotlarda aks ettirilmaydi. Buning uchun bu moddalar tan olish mezonlariga javob berishi lozim.

Konseptual asosga kiritilgan o'zgarishlarga asosan aktiv yoki majburiyat tan olinishi uchun ho'jalik operatsiyasi ham o'rinli ham ishonchli taqdim etilishini ta'minlash lozimligi belgilandi.

Oldin elementlar tan olinish mezoni sifatida tashkilot tomonidan iqtisodiy naf olish ehtimolligi va ishonchli baholash imkoniyati bilan belgilanar edi. MHXS kengashi ushbu mezonlarni juda ham torligi va natijada ushbu ikki mezonga javob berolmagan, lekin o'rinli bo'lgan moliyaviy axborotlar tushib qolishini oldini olish maqsadida yuqoridagi o'zgarish kiritildi. Buning natijasida boshqa MHXSlarga ham tegishli o'zgartirishlar kiritish lozim bo'ladi.

Agar modda moliyaviy hisobotlarda tan olinmasa ham, ishonchli taqdim etilishi sharti bilan moliyaviy hisobotlarga izohlarda ko'rsatib o'tilishi lozim.

Konseptual asosda aktivlar va majburiyatlarni hisobdan chiqarilishi faktorlari sifatida quyidagi faktorlar qo'rsatib o'tilgan:

Tan olingan aktivga yoki uning bir qismiga bo'lgan nazoratning yo'qolishi;

Tashkilotning mavjud majburiyat uchun ortiq majburiyatli emasligi;

Tan olish va hisobdan chiqarish masalasi har bir MHXSda alohida har bir elementga nisbatan kengaytirib ko'rsatib o'tilgan.

Qo'shma korxonalarda aktivlarni hisobga olishda ularning xizmat muddatiga qarab uzoq muddatli va joriy aktivlarga bo'linadi hamda moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning alohida uzoq muddatli va joriy aktivlar bo'limida aks ettiriladi.

Uzoq muddatli aktivlar	Joriy aktivlar
Asosiy vositalar (MHXS/IAS 16)	Tovar moddiy zahiralari(MHXS/IAS 2)
Investitsion mulk (MHXS/IAS 40)	Debitorlik qarzlari(MHXS/IFRS 9)
Nomoddiy aktivlar (MHXS/IAS 38)	Pul mablag'lari (MHXS/IFRS 9)
Gudvil (MHXS/IFRS 3)	Qisqa muddatli biologik aktivlar (MHXS/IAS 41)
Kechiktirilgan soliq aktivlari (MHXS/IAS 12)	
Uyushmaviy kompaniyalar va qo'shma korxonalarga investitsiyalar (MHXS/IAS 28)	
Biologik aktivlar (MHXS/IAS 41)	
Foydali qazilmalar zaxiralarini izlash va baholash (MHXS/IFRS 6)	
Foydalanish huquqi (MHXS/IFRS 16)	
Moliyaviy aktivlar (MHXS/IFRS 9)	
Sotishga mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar (MHXS/IFRS 5)	

Yuqoridagi ko'rsatkichlar asosida, aktivlarni hisobda aks ettirishni 2-jadvalda keltirib o'tamiz (2-jadval).

Yuqoridagi jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, uzoq muddatli aktivlar 16-BHXS “Asosiy vositalar” xalqaro standartlari bo'yicha hisobda aks ettiriladi.

Shundan kelib chiqqan holda, hisobda aks ettirilishi orqali quyidagi jihatlarga e'tibor qaratiladi:

Birinchidan hisob siyosati to'g'ri tuzilishi lozim, unga ko'ra uzoq mudatli aktivlarning kirimi boshlang'ich va qayta baholash qiymatida kirim qilinishi, eskirish hisoblanishi, yil oxirida qayta baholanishi orqali hisobotlarda aks ettiriladi.

2-jadval

Aktivlarni MHXS asosida hisobga olish tartibi¹

Uzoq muddatli aktivlar tarkibi	Ta’rifi	Hisobga olish modeli	Amortizatsiya hisoblash usullari
Asosiy vositalar	Asosiy vositalar xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini amalga oshirish uchun muhim vosita bo‘lib, ular o‘zining iqtisodiy tabiatiga ko‘ra mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish yoki xizmat ko‘rsatish hamda ma‘muriy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida korxonalar faoliyatida uzoq vaqt davomida foydalaniladigan aktivlardir.	Boshlang‘ich qiymat Haqqoniy qiymat	To‘g‘ri chiziqli usul. Kamayib boruvchi qoldiq usuli. Ishlab chiqarish usuli.
Investitsion mulk	Investitsion mulk-bu ijaraga olish yoki kapitalini o‘stirish yoki har ikkalasini olish uchun mo‘ljallangan yer yoki bino, lekin korxonaning odatdagi faoliyati davomida foydalanishi yoki sotishi uchun emas.	Boshlang‘ich qiymat Haqqoniy qiymat	Haqqoniy qiymat modeli bo‘yicha eskirish hisoblanmaydi, boshlang‘ich qiymati modeli xuddi asosiy vositalar kabi bo‘ladi.
Biologik aktiv	biologik aktivlar – bu tirik hayvonlar yoki o‘simliklardir	Boshlang‘ich qiymat Haqqoniy qiymat	Boshlang‘ich qiymatida hisobga olinishi xuddi asosiy vositalarga o‘xshaydi. Haqqoniy qiymatida eskirish hisoblanmaydi.
Nomoddiy aktivlar	Moddiy ko‘rinishga ega bo‘lmaagn, korxonada identifikatsiya qilinadiga hamda uzoq muddatga xizmat qiladigan aktivlardir	Boshlang‘ich qiymat Haqqoniy qiymat	To‘g‘ri chiziqli usul. Kamayib boruvchi qoldiq usuli. Ishlab chiqarish usuli.

Ikkinchidan buxgalteriya hisobida ikki yoqlama tizim asosida jurnal o‘tkazmalari orqali hisobga olinadi.

Uchinchidan, uzoq muddatli aktivlarning turlariga qarab moliyaviy hisobotning tarkibi bo‘lgan moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotning aktivlar qismiga “uzoq muddatli aktivlar” bo‘limining to‘g‘ri tashkil qilinishi lozim. Bu esa xorijiy investorlar uchun moliyaviy hisobotning shaffofligini ta‘minlashiga xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqqan holda, “Moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot”ning Uzoq muddatli aktivlar bo‘limini 3-jadvalda keltirib o‘tamiz:

3-jadval

Qo‘shma korxonalarda moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotda uzoq muddatli aktivlarining tarkibi²

	Aktivlar	
	Uzoq muddatli aktivlar	
1.	Asosiy vositalar (MHXS/IAS 16)	XXX
2.	Investitsion mol-mulk (MHXS/IAS 40)	XXX
3.	Nomoddiy aktivlar (MHXS/IAS 38)	XXX
4.	Gudvil (MHXS/IFRS 3)	XXX
5.	Kechiktirilgan soliq aktivlari (MHXS/IAS 12)	XXX

¹ Mualliflar ishlanmasi

² Mualliflar ishlanmasi

6.	Uyushmaviy kompaniyalar va qo'shma korxonalarga investitsiyalar (MHXS/IAS 28)	XXX
7.	Biologik aktivlar (MHXS/IAS 41)	XXX
8.	Foydali qazilmalar zaxiralarini izlash va baholash (MHXS/IFRS 6)	XXX
9.	Foydalanish huquqi (MHXS/IFRS 16)	XXX
10.	Moliyaviy aktivlar (MHXS/IFRS 9)	XXX
11.	Sotishga mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar (MHXS/IFRS 5)	XXX
	Jami uzoq muddatli aktivlar	XXX

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlar orqali qo'shma korxonalarda uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish maqsadga muvofiq. Bu esa moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotni tuzishda jiddiy holatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qiladigan bo'lsak, buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishning konseptual asosini belgilaydi. Shuning uchun qo'shma korxonalarda hisob siyosatini ishlab chiqish va unga amal qilishda mazkur tamoyillar talabini bajarish muhim ahamiyatga ega.

Uzoq muddatli aktivlarni tan olishning tamoyillaridan kelib chiqib, aktiv uzoq muddatga, ya'ni bir yildan ortiq muddatga xizmat qilishi, nazorat funksiyasiga ega bo'lishi hamda iqtisodiy foyda keltirish imkoniyatini ta'minlanishi lozim.

Ikkinchidan aktivlar uzoq va joriy aktivlarga tan olinishida ularning xizmat muddatini baholash orqali umrini aniqlash hamda ularning farqli jihatlarini buxgalteriya hisoboda moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda to'liq aks ettirish lozim.

Uchinchidan uzoq muddatli aktivlar tarkibiga gudvill, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, sho'ba korxona moliyaviy investitsiyalari, assotsiatsiyalangan korxona investitsiyalari, boshqa moliyaviy investitsiyalar, uzoq muddatli debitorlik qarzar moddalari asosida turkumlanishi maqsadga muvofiq.

Uzoq muddatli aktivlarni hisobga olishda BHXS 1 - Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish, BHXS 8 - Hisob siyosatlari, hisoblab chiqilgan baholardagi o'zgarishlar va xatolar, BHXS 16 - Asosiy vositalar, BHXS 7 - Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, BHXS 38 - Nomoddiy aktivlar, BHXS 40 - Investitsion mulk, MHXS 1 - Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini birinchi marta qo'llash, MHXS 3 - Biznes birlashuvlari, MHXS 5 - Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom

ettirilmaydigan faoliyat, MHXS 9 - Moliyaviy instrumentlar, MHXS 10 - «Jamlangan (konsolidatsiyalashgan) moliyaviy hisobotlar», MHXS 15 - Mijozlar bilan tuzilgan shartnomalardan tushgan daromad standartlari asosida hisobga olinishi lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda yuqoridagi holatlar asosida aktivlarni tan olish xalqaro standartlarning asosiy mezonini bo'lib hisoblanadi va moliyaviy hisobotning asosiy prinsiplaridan biri uzluksizlik tamoyilini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to'g'risida” Qonun, yangi tahriri (13.04.2016-yildagi O'RQ-404 son)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4611-son Qarori. <https://lex.uz/docs/4746047>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentyabrdagi PQ-282-son “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktyabrdagi 181 – son buyrug'i 1-ilovaga asosan «Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risida»gi Nizom
5. Sokolov Ya.V. Osnovi teorii buxgalterskogo ucheta. - M.: Finansi i statistika, 2002. - S. 48
6. Kuter M.I. Teoriya i prinsipi buxgalterskogo ucheta. Uchebnoye posobiye. - M.: Finansi i statistika, Ekspertnoye byuro, 2000. - S.135
7. Ismanov I.N. Aktivlar tushunchasining iqtisodiy mazmuni va ularni hisobga olishning ayrim munozarali jihatlarini // “Iqtisod va moliya” ilmiy-jurnal. № 2, 2016-yil.
8. Tashnazarov S.N. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va ularga o'tish zaruriyati //

- “Iqtisod va moliya” ilmiy-jurnal. № 7, 2016-yil.
9. Mavlyanova D.M. Joriy aktivlar hisobi, tahlili va auditini uslubiy jihatlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 2020-yil 56 bet.

A.Юсупов Особенности организации учёта активов в совместных предприятиях на основе международных стандартов	A.Yusupov Specific aspects of asset organization in joint ventures based on international standards
Аннотация. В статье дается общая характеристика деятельности совместных предприятий, а также освещаются организационно-правовые аспекты бухгалтерского учета элементов финансовой отчетности, таких как: основные средства, нематериальные активы, инвестиционная собственность, биологические активы, долгосрочные финансовые инвестиции, отложенные налоговые активы, долгосрочные активы, предназначенные для продажи, товарно-материальные запасы, дебиторская задолженность и денежные средства. Ключевые слова: совместные предприятия, МСФО, активы, долгосрочные активы, оборотные активы, основные средства, нематериальные активы, инвестиционное имущество, биологические активы, долгосрочные финансовые инвестиции, отложенные налоговые активы, долгосрочные активы, предназначенные для продажи, товарно-материальные запасы, дебиторская задолженность, денежные средства, финансовая отчетность.	Abstract. The article provides a general overview of the activities of joint ventures and covers the organizational and legal aspects of accounting for financial reporting elements. It also highlights the specific features of accounting for fixed assets, intangible assets, investment property, biological assets, long-term financial investments, deferred tax assets, long-term assets held for sale, inventories, accounts receivable, and cash. Keywords: joint ventures, IFRS, assets, long-term assets, current assets, fixed assets, intangible assets, investment property, biological assets, long-term financial investments, deferred tax assets, long-term assets held for sale, inventories, accounts receivable, cash, financial statements.

Alisher Bobaqulovich Ravshanov – SamISI mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0009-0002-5204-2467

CHORVACHILIK XO‘JALIKLARIDA QORAMOLLARNI HISOBGA OLIISH MUAMMOLARI

Annatatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo‘jalik korxonalarida qoramollarni tasniflanishi, baholanishi, ularni hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha mavjud muammolar yoritilgan, mahsuldor va ishchi hayvonlarning ta'rifi ishlab chiqilgan. 41-son BHXS “Qishloq xo‘jaligi” standartining mohiyati va asosiy qoidalari keltirilgan. Maqolada qoramollarni tan olish, boshlang'ich va adolatli (haqqoniy) qiymatda baholash, qoramollar va ulardan olingan mahsulotlarning haqqoniy qiymatini o'zgarishidan olinadigan foyda yoki ko'rilgan zarni hisobga olish tartibi keltirilgan. Kalitli so'zlar: qoramollar, mahsuldor hayvonlar, ishchi hayvonlar, biologik aktivlar, biotransformatsiya, kapital qo'yilmalari, boshlang'ich qiymat, davomiy baholash, haqqoniy qiymat.
--

Kirish. Qishloq xo‘jaligi sohasida qoramolchilik muhim iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lib, ularni to‘g‘ri hisobga olish va samarali boshqarish tarmoq rivojining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Qoramollarning soni, haqqoniy qiymati, mahsuldorligi va ularning tarkibi haqida aniq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish qishloq xo‘jalik korxonalari va investorlar uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda aholisi sonining keskin oshib borishi, ekin maydonlarining qisqarishi va shurlanishi, ekologik iqlimning o'zgarishi va davlatlar o'rtasida siyosiy keskinlikni kuchayishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son farmonining 1-ilovasida qishloq xo‘jaligida - 4,8 milliard dollar miqdorida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmini hozirgi 40 milliarddan 2030-yilgacha 60 milliard dollarga yetkazish bo'yicha islohotlarni boshlash.

Qishloq xo‘jaligi uchun 52 trillion so'm ajratib, dehqon va fermer xo‘jaliklari, sohadagi klasterlarni qo'llab-quvvatlash[1] qishloq xo‘jaligida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustivor

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.